



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA GAPNING TAVSIFI VA TA'RIFI MUAMMOLARI

Qosimova Xusnuraxon Oybek qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, PhD

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda gapning tavsifi va ta'rifi bilan bog'liq nazariy muammolar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Gapning ko'p qirrali tabiati — uning struktur, semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlari – turli lingvistik paradigmalarda doirasida yoritiladi. Maqolada an'anaviy sintaksisdagi predikativlikka asoslangan yondashuvlar bilan bir qatorda, zamonaviy lingvistika vakillari qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda gapning faqat formal-sintaktik birlik sifatida emas, balki kommunikativ va kognitiv birlik sifatida talqin etilishi zarurligi asoslab beriladi. Maqolada gapni tavsiflashda struktur, semantik va kommunikativ mezonlarning integratsiyasi muhimligi ta'kidlanadi hamda gapni ko'p qatlamli, dinamik va kontekstga bog'liq lisoniy birlik sifatida o'rganish zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: gap, predikativlik, sintaktik birlik, kommunikativ birlik, semantik tuzilma, pragmatika, kognitiv yondashuv, diskurs, tipologik yondashuv.

ПРОБЛЕМЫ ОПИСАНИЯ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Косимова Хуснурахон Ойбек кизи
Андижанский государственный институт иностранных языков, PhD

Аннотация

В данной статье на основе комплексного подхода анализируются теоретические проблемы, связанные с описанием и определением предложения в современной лингвистике. Многоаспектная природа предложения — его структурные, семантические, прагматические и когнитивные характеристики — рассматривается в рамках различных лингвистических парадигм. Наряду с традиционными синтаксическими подходами, основанными на предикативности, проводится сравнительный анализ взглядов современных лингвистов. В исследовании обосновывается необходимость интерпретации предложения не только как формально-синтаксической единицы, но и как коммуникативной и когнитивной единицы. Подчеркивается важность интеграции структурных, семантических и коммуникативных критериев при описании предложения, а также делается вывод о необходимости изучения предложения как многоуровневой, динамичной и контекстуально обусловленной языковой единицы.

Ключевые слова: предложение, предикативность, синтаксическая единица, коммуникативная единица, семантическая структура, прагматика, когнитивный подход, дискурс, типологический подход.

PROBLEMS OF SENTENCE DESCRIPTION AND DEFINITION IN MODERN LINGUISTICS

Qosimova Xusnuraxon Oybek qizi
Andijan State Institute of Foreign Languages, PhD

Abstract

This article analyzes theoretical issues related to the description and definition of the sentence in modern linguistics from a comprehensive perspective. The multifaceted nature of the

sentence—its structural, semantic, pragmatic, and cognitive features—is examined within various linguistic paradigms. Alongside traditional syntactic approaches based on predicativity, the views of modern linguists are comparatively analyzed. The study argues that the sentence should be interpreted not only as a formal-syntactic unit but also as a communicative and cognitive unit. It also emphasizes the importance of integrating structural, semantic, and communicative criteria in the description of the sentence, concluding that the sentence should be studied as a multi-layered, dynamic, and context-dependent linguistic unit.

Keywords: sentence, predicativity, syntactic unit, communicative unit, semantic structure, pragmatics, cognitive approach, discourse, typological approach.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda gap asosiy kommunikativ birlik sifatida e'tirof etilishiga qaramay, uning tavsifi va ta'rifi masalalariga yakdil va mukammal yechim topilmagan. Bu esa gapning ko'p qirrali tabiatga — uning semantik, struktur, pragmatik va kognitiv-konseptual xususiyatlariga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tilshunoslikda gapni lisoniy tavsiflash masalasi sintaksisning eng murakkab nazariy muammolaridan biridir. Gapning mohiyatini aniqlashda turli ilmiy paradigmlar o'ziga xos mezonlarni ilgari suradi. Natijada gapni faqat formal-sintaktik birlik sifatida izohlash yetarli emasligi tobora ravshanlashib bormoqda.

R.M.W. Dixon gapni voqea va uning ishtirokchilarini ifodalovchi sintaktik tuzilma sifatida tavsiflaydi [7; 61-p.]. Mazkur ta'rifda gapning struktur ko'rinishidan ko'ra semantik yadrosi ustuvor qo'yilgan. Dixon uchun gap — bu voqea modeli. Ya'ni, har qanday gapda voqea markazi mavjud bo'lishi zarur.

Bu yondashuv gapni formal sxema emas, balki semantik konfiguratsiya sifatida tushunishga imkon beradi. Ayniqsa, turli tizimli tillarni qiyosiy o'rganishda voqea markazini aniqlash metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy sintaksisda predikativlik ega va kesim munosabati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda predikativlik kengroq — voqeaning nutqiy vaziyatda aktuallashuvi sifatida izohlanadi.

D. Biber gapni subyekt va predikatni o'z ichiga olgan hamda diskurs doirasida mustaqil birlik sifatida qo'llanish imkoniyatiga ega konstruktsiya deb izohlaydi [6; 126–127-b.].

D. Biber gapni (klozni) ikki mezon asosida aniqlaydi:

1. Struktur tarkib — subject va predicate mavjudligi;
2. Funktsional mustaqillik — diskursda alohida birlik sifatida qo'llanish imkoniyati [6; 126–127-b.].

Bu yondashuv formal va funktsional mezonlarni birlashtiradi. Shuning uchun u zamonaviy integrativ sintaksis uchun muhim metodologik tayanch hisoblanadi. Mualliflar fikricha, predikativ konstruktsiya nutq doirasida mustaqil interpretatsiya qilina olishi kerak.

Shu o'rinda savol tug'iladi: minimal gap nima? O'zbek tilida "Keldim" kabi shakllar mustaqil gap vazifasini bajaradi. Bu yerda ega formal ifodalanmagan, biroq fe'l morfologiyasi orqali identifikatsiya qilinadi. Demak, predikativlik struktur emas, morfologik va semantik ko'rsatkichlar orqali ham realizatsiyalanadi.

Zamonaviy konstruktsiyalar nazariyasida gap ma'lum argument naqshiga ega konstruktsiya sifatida qaraladi. Goldberg shunday yozadi: "Konstruktsiyalarning ma'nosi ular tarkibidagi fe'llarga bog'liq emas, ya'ni ular mustaqil ma'no anglatadi [9; 1-p.]." Bu fikr shuni anglatadiki, gapning semantik tuzilmasi faqat fe'l bilan belgilanmaydi. Butun konstruktsiya ma'lum ma'noni kodlaydi.

Masalan, *He gave me the book — u kitobni menga berdi*. Bu yerda uch argument mavjud: agent, tema, benefaktiv. Konstruktsiya ushbu rollarni tartibga soladi. Demak, gap tavsifi argument konfiguratsiyasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Fillmore tomonidan taklif etilgan semantik rollar grammatikasi (*case grammar*)

nazariyasida gap propozitsiya va modallik komponentlariga ajratiladi: “Gap propozitsiya (mazmuniy qism) va modallik komponentidan iborat [8; 1–25-p.]” Bu modelga ko‘ra, semantik rollar grammatik realizatsiyadan mustaqil ravishda mavjud. Masalan, *The book was read — Kitob o‘qildi*. Bu passiv konstruksiyada struktur subyekt va semantik agent mos tushmaydi. Demak, gap tavsifi struktur va semantik qatlamlarni alohida, lekin o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Levinson gapning to‘liqligi kontekst bilan belgilanadi, deydi: “Jumla sintaktik jihatdan tugallanmagan, lekin pragmatik jihatdan tugallangan bo‘ladi [15; 18-p.]”

Masalan:

— *Are you coming?*

— *Yes.*

— *Ketyapsanmi?*

— *Ha.*

Ikkinchi replikada formal predikativ struktura yo‘q, biroq u pragmatik jihatdan to‘liq gap vazifasini bajaradi. Bu hodisa gap tavsifini diskurs darajasiga olib chiqadi.

Haspelmath sintaktik kategoriyalarni qiyosiy mezon asosida aniqlash zarurligini ta’kidlaydi: “Qiyosiy tushunchalar muayyan tilga xos grammatik kategoriyalardan mustaqil holda belgilanishi lozim [11; 663–687-p.]”

Bu fikr tipologik tadqiqotlarda juda muhim. Chunki ega, kesim, to‘ldiruvchi kabi terminlar ba’zi tillarda to‘liq mos tushmasligi mumkin. Demak, gap tavsifi universal semantik parametr va tilga xos formal realizatsiyani ajratib ko‘rsatishi zarur.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda gap informatsion arxitektura sifatida ham ko‘rib chiqiladi. O‘zbek tilida so‘z tartibi nisbatan erkin bo‘lgani sababli fokus va tema-remamunosabatlari sintaktik pozitsiyaga ta’sir ko‘rsatadi.

Masalan: *Talaba kitobni o‘qidi. Kitobni talaba o‘qidi*. Ikkinchi variantda obyekt fokus pozitsiyasiga chiqadi. Struktur model bir xil bo‘lsa-da, informatsion konfiguratsiya o‘zgaradi. Bu hodisa gap tavsifida informatsion ierarxiyani ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Ba’zi hollarda struktur markaz va semantik markaz mos tushmaydi. Masalan: *I am cold. Menga sovuq bo‘ldi. Мне холодно*. Bu gapda formal ega “menga” emas, balki tajriba markazi sifatida semantik subyekt mavjud. Bunday konstruksiyalar gap tavsifida struktur mezon bilan cheklanib qolish mumkin emasligini ko‘rsatadi. Semantik rollar tizimi alohida e’tibor talab qiladi.

O‘zbek tilida quyidagi konstruksiyalar ham gap vazifasini bajaradi:

— *Qachon kelasan?*

— *Ertaga.*

Ikkinchi replikada formal predikativ struktura yo‘q, biroq kontekstda to‘liq gap sifatida amal qiladi. Bu hodisa gapni pragmatik mezon asosida aniqlash zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, minimal gap tushunchasi kontekst bilan uzviy bog‘liq.

Agglutinativ tizimga mansub o‘zbek tilida sintaktik munosabatlar ko‘pincha kelishik affikslari orqali belgilanadi: *Talaba kitobni o‘qidi*. “-ni” ko‘rsatkichi obyekt rolini aniqlaydi. Demak, gap tavsifida morfologik markerlar sintaktik ierarxiyani aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu jihat analitik tillar bilan qiyosiy-tipologik tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy sintaksisda gap grammatik jihatdan shakllangan, tugal fikrni ifodalovchi til birligi sifatida ko‘plab ta’riflar berilgan. Ushbu talqinlarda gapning asosiy xususiyati sifatida predikativlik, ya’ni ega (subyekt) va kesim (predikat) munosabatiga urg‘u beriladi va gapga ta’rif berishda ham gapning aynan shu xususiyatiga asosiy e’tibor qaratiladi. Ammo bunday yondashuvlar gapning nutqiy, kommunikativ va konseptual jihatlarini yetarli darajada qamrab olmaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda gap muammosi eng murakkab va ko‘p qirrali nazariy masalalardan biri sifatida baholanadi. Gap til tizimining markaziy sintaktik birligi bo‘lishi bilan birga, tafakkur, nutq va kommunikatsiya jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab lisoniy hodisa

sanaladi. Shu sababli gapni tavsiflash va unga yagona, universal ta'rif berish masalasi hozirgacha yakdil yechim topmagan nazariy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlansa, gap dastlab mantiqiy-falsafiy kategoriya sifatida izohlanganini ko'rish mumkin. Bu yondashuvda gap fikrning lisoniy ifodasi, ya'ni subyekt va predikat munosabatining til orqali namoyon bo'lish shakli sifatida talqin qilingan. Bunday qarashlar natijasida gapning grammatik, struktur va kommunikativ jihatlarini ikkilamchi o'ringa tushib qolgan. Mazkur holat, ayniqsa, klassik mantiq va an'anaviy grammatika doirasida yaqqol kuzatiladi.

Keyingi bosqichlarda tilshunoslikda struktural yondashuv shakllanib, gap til tizimining ichki elementlari o'rtasidagi munosabatlar asosida tavsiflana boshlandi. Bu paradigmadagi gap, avvalo, sintaktik model, ya'ni muayyan strukturaga ega birlik sifatida talqin qilindi. Strukturalizm gapning formal qurilishini aniqlashda muhim natijalarga erishgan bo'lsa-da, uning semantik va kommunikativ mohiyatini to'liq ochib bera olmadi. Natijada gap ko'pincha real nutqdan uzilgan, abstrakt sxema sifatida qaraldi.

Zamonaviy tilshunoslikda esa gapni faqat struktur birlik sifatida izohlash yetarli emasligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Chunki gap nutq jarayonida ma'no hosil qiladi, kommunikativ vazifani bajaradi va inson tafakkuri bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shu bois hozirgi bosqichda gap nominativ va kommunikativ birlik sifatida kompleks tarzda tadqiq etilmoqda. Bu yondashuv gapning bir vaqtning o'zida borliqni nomlash, voqelikni konseptualizatsiya qilish va axborotni muloqot ishtirokchilariga yetkazish vazifalarini bajarishini e'tirof etadi.

Gapni tavsiflashdagi asosiy muammolardan biri — uning minimal va maksimal chegaralarini belgilash masalasidir. Ba'zi nazariyalarda gap predikativlikka ega bo'lgan har qanday birlik sifatida qaraladi, boshqalarida esa u faqat kommunikativ yakunlanganlikka ega bo'lgan sintaktik tuzilma deb talqin qilinadi. Mazkur qarashlar o'rtasidagi tafovut, ayniqsa, turli tizimli tillar materialini tahlil qilish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki analitik, flektiv, agglutinativ va izolyativ tillarda gapning struktur va semantik chegaralari turlicha namoyon bo'ladi.

Shuningdek, gapning ta'rifiga doir muammolardan yana biri — predikativlikning mohiyatini aniqlash bilan bog'liq. An'anaviy grammatika predikativlikni kesim kategoriyasi bilan bevosita bog'lab talqin qilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda predikativlik kengroq tushuncha sifatida izohlanadi. U nafaqat grammatik shakllar, balki nutqiy vaziyat, zamon, modalitet va subyektiv baho bilan ham uzviy bog'liq hodisa sifatida qaralmoqda. Bu esa gapni faqat grammatik birlik sifatida emas, balki kommunikativ hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Antroposentrik paradigma doirasida gap insonning bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kognitiv birlik sifatida talqin qilinmoqda. Bunda gap orqali inson borliqni qanday idrok etishi, uni qanday konseptual tuzilmalarga ajratishi va nutqda qay tarzda ifodalashi masalalari markazga chiqadi. Mazkur yondashuv gapni statik birlik emas, balki dinamik, kontekstga bog'liq va nutq jarayonida shakllanuvchi hodisa sifatida ko'rishga imkon beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda gapning yagona va mutlaq ta'rifi mavjud emasligi, bir tomondan, nazariy qarashlarning rang-barangligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, gapning o'ta murakkab va ko'p qatlamli tabiati bilan bog'liqdir. Shu bois hozirgi tadqiqotlarda gapni struktur, semantik, kommunikativ va kognitiv jihatlarining uyg'unligi asosida tavsiflash tendensiyasi kuchayib bormoqda. Mazkur holat, ayniqsa, turli tizimli tillarni qiyosiy-tipologik asosda o'rganishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, zamonaviy tilshunoslikda gapni tavsiflash muammosi hali ham ochiq masala bo'lib qolmoqda. Gapning lisoniy mohiyatini to'liq ochib berish uchun uni faqat an'anaviy grammatik doirada emas, balki antroposentrik, kognitiv va funksional yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etish zarur. Aynan shu yondashuv keyingi boblarda gap bo'laklari tipologiyasini ilmiy asosda yoritish uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

An'anaviy grammatika doirasida gap, avvalo, predikativlikka ega bo'lgan sintaktik birlik

sifatida talqin qilinadi. Jumladan, A.A. Reformatskiy gapni: “Gap tarkibida predikativ sintagma mavjud bo‘lgan va predikativlik munosabatini ifodalovchi nutqiy birlikdir [5; 176-c.],” deb ta’riflaydi. Ushbu yondashuvda gapning asosiy belgisi sifatida predikativlik va grammatik yakunlanganlik ko‘rsatiladi.

Shu bilan birga, V.V. Vinogradov gapni: “Gap — muayyan til qonunlariga muvofiq grammatik jihatdan rasmiylashgan, fikrni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiluvchi yaxlit nutq birligidir hamda nutqning asosiy kommunikativ vositasi sifatida namoyon bo‘ladi [2; 243–245, 249–251-c.],” sifatida izohlaydi. Bu ta’rif gapning nutqiy va kommunikativ tabiatiga e’tibor qaratishi bilan muhim bo‘lsa-da, unda gapning kognitiv va konseptual jihatlari yetarlicha ochib berilmaydi.

R. Huddleston va G.K. Pullum gapni sintaktik jihatdan mustaqil kloz sifatida ta’riflaydilar hamda uni diskurs doirasida to‘liq kommunikativ birlik vazifasini bajaruvchi tuzilma [12; 42–25-p.] deb hisoblaydilar. Ushbu ta’rif, bir tomondan, gapning struktur mustaqilligini ta’kidlasa, ikkinchi tomondan, uning nutqiy funksiyasini ham nazarda tutadi.

M.A. Halliday gapni funksional nuqtai nazardan izohlar ekan, uni tajribaviy (*experiential*), shaxslararo (*interpersonal*) va matnii (*textual*) metafunksiyalar asosida tashkil topgan klozalar majmuasi sifatida talqin qiladi [10; 83–90-p.]. Mazkur yondashuvga ko‘ra, gapni faqat formal sintaktik qolip sifatida tushuntirish yetarli emas; u kommunikativ ehtiyoj va ma’no tuzilishi bilan belgilanadigan funksional konfiguratsiya sifatida qaralishi lozim.

R.U. Langacker kognitiv grammatika doirasida gapni konseptual domen ichida profilga chiqarilgan jarayonni ifodalovchi ramziy birlik sifatida tavsiflaydi [13; 110–118-p.]. Ushbu qarashga ko‘ra, grammatika inson tafakkuridan mustaqil mexanizm emas, balki konseptualizatsiya jarayonining lisoniy aksidir. Demak, gap tuzilishi sintaktik qoidalardan ko‘ra, insonning bilish va idrok mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ko‘plab olimlar gapga ta’rif berishda undagi kesimlik shakli va tugallanganlik ohangini birlamchi qilib olishgan. A. Nurmonov o‘z tadqiqotlarida gapga quyidagicha ta’rif bergan: “Kesimlik shakliga ega bo‘lgan va tugallangan ohang bilan talaffuz qilingan har qanday so‘z yoki so‘zlar yig‘indisi gap deyiladi [3; 22–26-b.].” Shu bilan birga, olim gap hosil qilish uchun eng faol so‘z turkumi fe‘l ekanligini va gap hosil qilishda kesimning asosiy bo‘lak bo‘lishini ta’kidlaydi. Ammo bu yondashuv gapning mazmun-mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi.

Shuningdek, S. Haymovich va B.I. Rogovskaya “gapni eng kichik kommunikativ (muloqot) birligi” deya ta’riflashgan [4; 221-c.]. Ammo bu ta’rifda gapning ko‘proq funksional tomoni yoritilib, shakl va mazmun hamda eng asosiysi, sintaktik jihatiga e’tibor berilmagan.

Ingliz olimi R. Nordkvist o‘z ishlarida gapni “tugal fikrni ifodalovchi so‘z yoki so‘zlar yig‘indisidan tashkil topgan grammatik birlik” [16] deya ta’riflaydi. Shuningdek, J. Leech gapni “bir yoki bir nechta klozlardan (*clause*) tashkil topgan til birligi” [14; 425-p.] sifatida ta’riflaydi. Mazkur ta’riflarning hech birida gapning semantik va sintaktik jihatlari to‘liq yoritilgan, deb ko‘rsata olmaymiz.

Mazkur ta’riflarning umumiy jihati shundaki, ular gapni, asosan, lisoniy tizim ichidagi birlik sifatida ko‘radi va uni inson tafakkuri bilan bog‘liq holda izohlashga yetarlicha imkon bermaydi. Shunday qilib, tilshunoslikda gap tushunchasi dastlab struktur mezonlar asosida izohlangan bo‘lsa-da, zamonaviy tadqiqotlarda uning funksional va kognitiv jihatlariga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Bu holat gapni ko‘p qatlamli, struktur-semantik-kommunikativ birlik sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Gap nazariyasida L.S. Barxudarovning gapga nisbatan ilmiy qarashlari o‘zining sof grammatik xususiyatlari bilan e’tiborga loyiq. Ayniqsa, uning gapga bergan grammatik ta’rifida qamrov nisbatan kengroq belgilangan: “Gap (*sentence*) deb, ega va kesim strukturasidan iborat bo‘lgan shunday til birligiga aytiladiki, unda mazkur struktura uni minimal nutq birligiga aylantira oladi [1; 270–271-c.].” Shunday qilib, gap deganda, L.S. Barxudarov ta’biriga ko‘ra, ega-kesimli

strukturani tushunish kerak. Masalan, “Bolalar keldi” — “The children have come”.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, ba’zan gaplar quyidagi tarkibga ega bo’lishi ham mumkin: “Albatta, bolalar keldi” — “Of course, the children have come”. Bunday gaplar ega-kesimdan tashqari tarkibida kirish bo’lak borligi bilan ham yuqoridagi gaplardan farq qiladi. Demak, gapning strukturasi kirish bo’lak bilan kengaytirish mumkin ekan, shu bois, uning grammatik ta’rifiga ham biroz o’zgartirish kiritish mumkin. Unda gapni “Gap (*sentence*) deb maksimal strukturasi ega, kesim va parenteza (kirish bo’lak)dan iborat bo’lgan shunday til birligiga aytiladiki, unda mazkur struktura uni minimal nutq birligiga aylantira oladi”, deb qisman to’ldirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бархударов Л. С., Штелинг Д. А. Грамматика английского языка. — М.: Литература на иностранных языках, 1960. — С. 270–271.
2. Виноградов В. В. Русский язык: (грамматическое учение о слове). — М.; Л.: Государственное учебно-педагогическое издательство, 1947. — С. 243–245, 249–251.
3. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. — Тошкент, 1988. — Б. 22–26.
4. Хаймович Б., Роговская Б. И. Теоретическая грамматика английского языка. — М.: Высшая школа, 1987. — С. 221.
5. Реформатский А. А. Введение в языковедение. — М.: Аспект Пресс, 1996. — С. 176.
6. Biber D., Johansson S., Leech G., Conrad S., Finegan E. Grammar of spoken and written English. — London: John Benjamins Publishing, 2021. — P. 126–127.
7. Dixon R. M. W. Basic linguistic theory. Vol. 2: Grammatical topics. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — P. 61.
8. Fillmore Ch. J. The case for case // Universals in linguistic theory / ed. E. Bach, R. T. Harms. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. — P. 1–25.
9. Goldberg A. E. Constructions: a construction grammar approach to argument structure. — Chicago: University of Chicago Press, 1995. — P. 1.
10. Halliday M. A. K., Matthiessen C. M. I. M. Halliday’s introduction to functional grammar. — 4th ed. — London: Routledge, 2014. — P. 83–90.
11. Haspelmath M. Comparative concepts and descriptive categories in crosslinguistic studies // Language. — 2010. — Vol. 86, № 3. — P. 663–687.
12. Huddleston R., Pullum G. K. The Cambridge grammar of the English language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002. — P. 42–45.
13. Langacker R. W. Foundations of cognitive grammar. Vol. 1: Theoretical prerequisites. — Stanford: Stanford University Press, 1987. — P. 110–118.
14. Leech G., Svartvik J. A communicative grammar of English. — London: Routledge, 2013. — P. 425.
15. Levinson S. C. Pragmatics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — P. 18.
16. Nordquist R. Sentence definition and examples in English grammar. — URL: <https://www.thoughtco.com/sentence-grammar-1692087>